

**TASHKENT INTERNATIONAL UNIVERSITY
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVSHI
DSc. 22/29.12.2023.I.175.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

G‘AFFOROV SHUHRAT NASRIYEVICH

**BILVOSITA SOLIQLAR MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH
MASALALARI**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit,

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yisha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent shahar – 2025 yil

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yisha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Content of dissertation the abstract of doctor of Philosophy (PhD) on
economical scienses**

G‘afforov Shuhrat Nasriyevich

Bilvosita soliqlar mexanizmini takomillashtirish masalalari.....3

Гаффоров Шухрат Насриевич

Вопросы совершенствования механизма косвенных налогов27

Gafforov Shuhrat Nasrievich

Issues of improving the mechanism of indirect taxes.....53

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....58

**TASHKENT INTERNATIONAL UNIVERSITY
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVSHI
DSc. 22/29.12.2023.I.175.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

G‘AFFOROV SHUHRAT NASRIYEVICH

**BILVOSITA SOLIQLAR MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH
MASALALARI**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit,

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent shahar – 2025 yil

Iqtisodiyot fanlari bo'yisha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan B2023.3.PhD/Iqt3249 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati ush tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tiu.uz) va «Ziyonet» ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Gadoyev Erkin Fayziyevich iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Rasmiy opponentlar:	Burxanov Aktam Usmanovich iqtisodiyot fanlari doktori, professor Ashurova Nasiba Batirovna iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Yetakshi tashkilot:	G.V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti Toshkent filiali

Dissertatsiya himoyasi Tashkent International University huzuridagi DSc.22/29.12.2023.I.175.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «26» 04 kuni soat 12⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100114, Toshkent shahri, Kishik xalqa yo'li ko'shasi, 7-uy. Tel.: (99895) 131-55-55; faks: (99895) 131-55-55; e-mail: info@tiu.uz

Dissertatsiya bilan Tashkent International Universityning Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (49 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100114, Toshkent shahri, Kishik xalqa yo'li ko'shasi, 7. Tel.: (99895) 131-55-55; faks: (99895) 131-55-55; e-mail: info@tiu.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «12» 04 kuni tarqatildi.
(2025 yil «01» 02 dagi 5 raqamli reestr bayonnomasi).



N.X. Jumayev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

A.T. Absalamov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

D.A. Raxmonov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi annotasiyasi)

Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda mamlakatlar byudjet daromadlarini shakllanishida bilvosita soliqlarning o'rnini alohida. Bilvosita soliqlarning bir nechta misollari mavjud bo'lib, ular odatda uchta toifadan biriga kiradi: savdo va xizmatlar soliqlari, bojxona va aktsiz solig'i, faoliyatga asoslangan soliqlar¹. Xalqaro to'g'ridan to'g'ri soliqlar markaziy kengashi (CBDT) tomonidan e'lon qilingan ma'lumotlarga ko'ra, 2024-moliya yilida to'g'ridan to'g'ri soliqlarning umumiy soliq tushumlariga qo'shgan hissasi 56,72% ni tashkil etdi, bu 2023-moliya yilidagi 54,63 foizdan oshib, bilvosita soliqlar ulushini 43,28 foizga kamaytirdi². Ko'pgina mamlakatlarda bilvosita soliqlarning hissasi, xususan qo'shilgan qiymat solig'ining ulushi katta hisoblanadi. Hozirgi vaqtda 174 mamlakat QQSni qabul qilgan. Bu Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD)ga a'zo 38 mamlakatdan 37 tasi kiradi³. Bu esa bilvosita soliqlar ma'muriyatchiligini takomillashtirishning dolzarbligini ko'rsatadi.

Xalqaro amaliyotda bilvosita soliqlar ma'muriyatchiligini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Soliqlar va ijtimoiy to'lovlar bo'yicha tushumlarni uchta asosiy toifa yoki turga bo'lish mumkin: birinchidan, ishlab chiqarish va import bilan bog'liq bo'lgan soliqlar (masalan, qo'shilgan qiymat solig'i – QQS) sifatida belgilangan egri soliqlar, ikkinchidan, daromad va boylikdan olinadigan joriy soliqlardan tashkil topgan to'g'ridan to'g'ri soliqlar. Qo'shilgan qiymat solig'i kabi bilvosita soliqlar uchun soliqlarni kim to'lashi talab va taklifning narx egiluvchanligiga bog'liq. Xalqaro amaliyotda qo'shilgan qiymat solig'ining minimal standart stavkasi 15% ni tashkil qiladi.⁴ Bilvosita soliqlarni hisoblash mexanizmini raqamlashtirish, raqamli soliq, raqamli moliyaviy aktivlarni qo'shilgan qiymat solig'iga tortish, ushbu soliqlarning soliq naoratini natijaviyligini tahlil qilish masalalari bu borada dolzarb tadqiqot yo'nalishlari hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida bilvosita soliqlar ma'muriyatchiligini xalqaro tajribalar asosida takomillashtirish bugungi kunning dolzarb masalasi bo'lib qolmoqda. O'zbekistonda bevosita soliqlar bo'yicha tushumlarning jami tushumdagi ulushi 2023 yilda 35,96 foizni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024 yilda 27 foiz bo'lishi prognoz qilingan⁵. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksiga kiritilgan o'zgartirishga muvofiq, 2023 yil 1 yanvardan qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi 15 foizdan 12 foizga pasaytirish kabi vazifa belgilab berilgan. Mazkur vazifani samarali amalga oshirishda bilvosita solig'larning soliqqa tortish bazacini kegaytirish, soliqlarni hisoblashda soliq va buxgalteriya hisobi ma'lumotlarining o'zaro mos kelishini ta'minlashga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlarning amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.

¹ What exactly is indirect tax? February 6, 2024. <https://tax.thomsonreuters.com/blog/what-is-indirect-tax/>.

² Direct Tax Collection Reaches 14-Year High in 2023-24. <https://vajiramandravi.com/upsc-daily-current-affairs/mains-articles/direct-tax-collection-reaches-14-year-high-in-2023-24/>.

³ Alastair Thomas.VAT Rate Structures in Theory and Practice. Macroeconomics, Trade and Investment Global Practice January 2024. <chromeextension://efaidnbmnnnibpcajpcglclefindmkaj/https://documents1.worldbank.org/curated/en/099920201182414099/pdf/>.

⁴ Jost Angerer. Indirect taxation. 04-2024. <https://www.europarl.europa.eu/factsheets/en/sheet/81/indirect-taxation>.

⁵ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Солиқ қўмитасининг маълумотлари.

O‘zbekiston Respublikasining 2024 yil 24 dekabrda “Soliq va budget siyosatining 2025 yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-1014-son, O‘zbekiston Respublikasining 2023 yil 28 dekabrda “Soliq va budget siyosatining 2024 yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-891-son, 2022 yil 30 dekabrda “Soliq va budget siyosatining 2023 yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-812-son va 2022 yil 30 dekabrda “2023 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-813-son qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 8 aprelda PF-101-son “Tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xususiy sektorni rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o‘shish uchun shart-sharoitlar yaratish borasida navbatda islohotlar to‘g‘risida”, 2022 yil 30 dekabrda PF-287-son “Respublika hududlarini toifalarga ajratish va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashning tabaqalashtirilgan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2022 yil 28 iyunda PF-162-son “Soliq ma‘muriyatchiligini isloh qilish davrida biznes uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, 2023 yil 4 sentyabrda “O‘zbekiston Respublikasi prezidentining tadbirkorlar bilan 2023 yilda ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-292 son, 2022 yil 30 dekabrda PQ-471-son “O‘zbekiston Respublikasining «2023 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining davlat budjeti to‘g‘risida»gi qonuni ijrosini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertasiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy hamda madaniy rivojlantirish, innovasion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Qo‘shilgan qiymat solig‘ining buxgalteriya hisobini va ma‘muriyatchiligini takomillashtirishning nazariy-uslubiy masalalari xorijlik iqtisodchi olimlar K.James, Julia Kagan, L.I.Goncharenko, I.A.Mayburov, A.A.Abakulova, M.M.Shadurskaya, V.A.Krasniskiy, N.Z.Zotikov, E. V. Smirnovlarni⁶ kiritish mumkin.

⁶ James K. “Exploring the Origin and Global Rise of VAT,” Manash University, Melbourne. 2011. Julia Kagan. Indirect Tax: Definition, Meaning, and Common Examples. Updated April 04, 2022. <https://www.investopedia.com/terms/i/indirecttax.asp>. Гончаренко, Л. И. Налоги и налоговая система Российской Федерации: учебник и практикум для академического бакалавриата / отв. ред. Л. И. Гончаренко. — 2-е изд., перераб. и доп. — М.: Издательство Юрайт, 2019. — 524 с. Майбуров И. А. Налоги и налогообложение: учебник для студентов вузов, обучающихся по направлениям «Экономика» и «Менеджмент», специальностям «Экономическая безопасность», «Таможенное дело» / И. А. Майбуров [и др.]; под ред. И. А. Майбунова. — 7-е изд., перераб. и доп. — М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2018. — 503 с. Абакулова А. А. Шадурская М. М., Налоговое администрирование в условиях цифровизации экономики. Финансы и кредит. 2022. В.А.Красницкий Налоговое администрирование. <https://wiseeconomist.ru/poleznoe/29668-nalogo-voe-administrirovaniye>.

Respublikamiz iqtisodchi olimlaridan E.F.Gadoev, Sh.A.Toshmatov, T.S.Malikov, N.H.Xaydarov, U.V.Gafurov, B.E. Toshmuradova, N.R. Kuzieva, Z.N.Qurbonov, K.R.Hotamov, N.B.Ashurova, K.M.Misirov, J.J.Urmonov, I.M.Niyazmetov, S.K.Xudoykulov, F.I.Isaev, U.X.Normurzaevlarning⁷ ilmiy ishlarida bilvosita soliqlarning ma'muriyatchiligining ayrim jihatlar o'rganilgan. Mazkur ilmiy ishlarda bilvosita soliqlarning soliqqa tortish mexanizmi kompleks tarzda o'rganilmagan. Jumladan, K.R.Hotamovning ilmiy ishida bilvosita soliqlarning buxgalteriya hisobi, tahlil va soliqqa tortish muammolarini o'rgangan⁸. H.A.Yangiboev ilmiy ishida Bevosita soliqlarni hisoblash va undirish mexanizmini takomillashtirish masalalari yoritilgan⁹.

Tadqiqotning dissertasiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertasiya tadqiqoti respublikamizda olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlarining ustuvor yo'nalishlariga mos keladi va Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti institut ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Raqamli iqtisodiyot sharoitida soliq ma'muriyatchiligi va xalqaro soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish" mavzusidagi ilmiy tadqiqot doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Bilvosita soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

bilvosita soliqlarning nazariy huquqiy asoslarini o'rganish asosida soliq siyosatidagi o'rnini ochib berish;

bilvosita soliqlarni qo'llashning jahon tajribasi o'rganish va uning ijobiy tomonlarini mamlakatimiz amaliyotida qo'llash;

25.02.2023. Зотиков Н.З. Налоговое администрирование, его влияние на налоговую нагрузку. Вестник Сургутского государственного университета. 2022;(1 (35)):26-37. <https://doi.org/10.34822/2312-3419-2022-1-26-37>. Смирнова Е.В. Совершенствование налогового администрирования НДС в интересах государства и налогоплательщиков. ЖУРНАЛ. Вестник Астраханского государственного технического университета. Серия: Экономика. №1 2018

⁷ E.F.Gadoev va b. Bilvosita soliqlar: qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i. Toshkent: "NORMA", 2011. 327 b.; Sh.A.Toshmatov Qo'shilgan qiymat solig'i. Monografiya. Toshkent.: "Iqtisodiyot va huquq dunyosi", 2004. -160 b.; T.S.Malikov, N.H.Haydarov Moliya: umumdavlat moliyasi. O'quv qo'llanma. T.: "Iqtisod-moliya", 2009. -556 b.; Gafurov U.V. Kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish. I.f.d. diss. avtoreferati. – T., 2017. Tashmuradova B.E. Qo'shilgan qiymat solig'i bazasini aniqlash va hisoblash xususiyatlari. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun, 2021-yil. , Kuziyeva N.R. Совершенствование законодательных основ создания деятельности и налоговых режимов предприятий экспортёров в свободных экономических зонах Узбекистана. Z.N.Qurbanov "Soliq hisobi va auditining nazariy va metodologik asoslari". Dis.i.f.d. - Toshkent.: BMA, 2008. 272 b.; K.R.Hotamov "Bilvosita soliqlar hisobi, tahlili va auditini takomillashtirish" dissertatsiya i.f.d., T.: 2016-y.136 b; N.B.Ashurova Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish. i.f.d. (DS) Dissertatsiyasi. T: 2018-yil. 247 b.; Misirov K.M. "Bilvosita soliqlarning moliyaviy hisobi va auditini takomillashtirish" mavzusidagi dissertatsiyasi avtoreferati.Toshkent.2010; J.J.Urmonov Tadbirkorlik subyektlarini soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish masalalari: Monografiya/ T.: "Iqtisod-Moliya", 2018-y. 240 b.; I.M.Niyazmetov "Soliq yukini optimallashtirish: nazariya, uslubiyat va amaliyot" Monografiya.-Toshkent: "Moliya", 2016. 192 b.; Xudoykulov S.K. Soliq tushumlarini prognoz qilish metodologiyasini takomillashtirish. i.f.d. diss. avtoreferati. T., 2019. 77 b.; F.I.Isayev Soliq tahlili metodologiyasini takomillashtirish. i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. 2022. 242 b; U.X.Normurzayev Soliq imtiyozlarining samaradorligi: nazariya, metodologiya va amaliyot. Iqtisodiyot fanlari doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi. 2022. 247 bet.

⁸ Hotamov K.R. Bilvosita soliqlar hisobi, tahlili va auditini takomillashtirish. Dissertatsiya i.f.d., – T., 2016.136 b

⁹ Yangiboyev H. A. Bevosita soliqlarni hisoblash va undirish mexanizmini takomillashtirish. 08.00.07 - Moliya, pul muomalasi va kredit Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati Toshkent, 2022

qo‘shilgan qiymat solig‘i mexanizmining joriy holatini tahlil qilish va xorijning ilg‘or tajribalari asosida soliq stavkasini pasaytirish bo‘yicha takliflar berish;

Turoperator xizmatlarini ko‘rsatuvchi tadbirkorlik subyektlariga chet ellik hamkorlariga taqdim etilgan hisobvaraqq-fakturada ko‘rsatilgan qo‘shilgan qiymat solig‘ini respublika budjetidan subsidiya sifatida qaytarilish bo‘yicha taklifni asoslash;

aksiz solig‘ini hisoblash tartibi va hisobotini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

bojxona to‘lovlari va yig‘imlarini undirish mexanizmini o‘rganish asosida takliflar berish.

Tadqiqotning obyekti bilvosita soliqlarni hisoblash va budjetga o‘ndirish mexanizmi olingan.

Tadqiqot predmeti bo‘lib, bilvosita soliqqa tortish mexanizmining uslubiy asoslarini takomillashtirish bilan bog‘liq iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda dialektik yondashuv, tahlil va sintez, tizimli tahlil, qiyosiy tahlil usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

mahalliy budjetlarni mablag‘ bilan ta‘minlash asosida hududlarni ijtimoiy va iqtisodiy rivojlantirish maqsadida qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasida daromadlar prognozining oshirib bajarilgan qismining 100 foizi, qolgan hududlarda esa 60 foizini qoldirish taklif etilgan;

mamlakat turizm salohiyatini yanada oshirish maqsadida turoperator xizmatlarini ko‘rsatuvchi tadbirkorlik subyektlariga ular tomonidan norezidentlarga xizmatlar ko‘rsatish asosida to‘langan qo‘shilgan qiymat solig‘ining 20 foiz miqdoridagi mablag‘lari respublika budjetidan subsidiya sifatida qaytarilishi lozimligi asoslangan;

aksiz solig‘ining bazasini kengaytirish va budjetga qo‘shimcha soliq hisoblash maqsadida tamaki va alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarishda absolyut miqdorda belgilangan aksiz solig‘i stavkalarini 10 foizga indeksatsiya qilish bo‘yicha taklif berilgan;

mamlakatimizning Jahon savdo tashkilotiga a‘zo davlatlar ko‘rsatkichlariga yaqinlashish, hamda import shartnomalarida tovar narxini pasaytirishning oldini olish maqsadida bojxona qiymati faqatgina uning bojxona qiymati deklarasiyasida ko‘rsatilgan hamma elementlarini inobatga olgan 1-usulda aniqlash taklif etilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarishda aksiz solig‘i to‘lanadigan mahsulot tarkibidagi etil spirtining ulushidan (miqdoridan) kelib chiqqan holda hisoblab chiqarish tartibi, alkogol mahsulotlarini import qilishda aksiz solig‘i stavkalari 5 foizga pasaytirish taklif etilgan;

davlat soliq xizmati organlari tomonidan aksiz markalari bilan markirovka qilinmagan ko‘piklanadigan va tabiiy vino mahsulotlari majburiy raqamli markirovkalash orqali to‘liq hisobga olinishini davlat soliq organlari xodimlari nazorat qilinishi kerakligi hamda ishlab chiqarilishi va realizasiya qilinishi samaradorligini tahlil qilib borish zarurli yuzasidan bergan takliflari amaliyotga joriy etilgan;

Qo‘shilgan qiymat solig‘ini undirish mexanizmini takomillashtirish maqsadida barcha to‘ifadagi xo‘jalik yurituvchi subyektlarida elektron hisobvaraqa-fakturani amaliyotida qo‘llash asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot ishini tayyorlashda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligining rasmiy ma‘lumotlaridan foydalanilganligi, ishda qo‘llanilgan yondoshuv va usullarning maqsadga muvofiqligi va ilmiy asoslanganligi, keltirilgan xulosa, taklif va tavsiyalarning Soliq qo‘mitasi tomonidan amaliyotga joriy qilinganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati bilvosita soliqlar mexanizmini takomillashtirishga oid nazariy-metodologik va soliq tizimiga oid maxsus ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan respublikada xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan to‘lanuvchi bilvosita soliqlar ma‘muriyatchiligini takomillashtirish bo‘yicha ishlab chiqiladigan kompleks chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Bilvosita soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha ishlab chiqilgan takliflar asosida:

mahalliy budjetlarni mablag‘ bilan ta‘minlash asosida hududlarni ijtimoiy va iqtisodiy rivojlantirish maqsadida qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasida daromadlar prognozining oshirib bajarilgan qismining 100 foizi, qolgan hududlarda esa 60 foizini qoldirishga doir taklifi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasining “2023 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-471-son qarorini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo‘mitasining 2023 yil 22 sentyabrdagi 15-96753-son dalolatnomasi). Natijada, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahri Kengashlarining budjet sohasidagi vakolatlarini yanada oshirishga, mahalliy budjetlarni mablag‘ bilan ta‘minlash, hamda ularning samarali va maqsadli sarflanishiga erishish asosida 2023 yilda 654,4 mlrd.so‘m, 2024 yilda 244,4 mlrd.so‘m mablag‘lar hududlarni ijtimoiy va iqtisodiy rivojlantirishga yonaltirilgan;

mamlakat turizm salohiyatini yanada oshirish maqsadida turoperator xizmatlarini ko‘rsatuvchi tadbirkorlik subyektlariga ular tomonidan norezidentlarga xizmatlar ko‘rsatish asosida to‘langan qo‘shilgan qiymat solig‘ining 20 foiz miqdoridagi mablag‘lari respublika budjetidan subsidiya sifatida qaytarilishga doir taklifi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-aprelda “Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-135-son qarorini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo‘mitasining 2023 yil 22 sentyabrdagi 15-

96753-son dalolatnomasi). Natijada, turoperator xizmatlarini ko'rsatuvchi tadbirkorlik subyektlariga ular tomonidan 5 nafar va undan ortiq norezidentlarga xizmatlar ko'rsatishni nazarda tutuvchi turpaketlar bo'yicha chet ellik hamkorlariga taqdim etilgan hisobvara-q-fakturada ko'rsatilgan qo'shilgan qiymat solig'ining 20 foiz miqdoridagi mablag'lar respublika budjetidan subsidiya sifatida qaytarish orqali turizm salohiyatidan to'liq va samarali foydalanish, mavjud resurslar va imkoniyatlardan har tomonlama foydalanish hisobiga turizm sohasida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlari qo'llab-quvvatlashga hamda qo'shimcha sharoitlar yaratishga xizmat qilgan;

aksiz solig'ining bazasini kengaytirish va budjetga qo'shimcha soliq hisoblash maqsadida tamaki va alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarishda absolyut miqdorda belgilangan aksiz solig'i stavkalarini 10 foizga indeksatsiya qilishga doir taklifi O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 30 dekabrda O'RQ-812-son Qonuni bilan Soliq kodeksining 2891 va 2892-moddalariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasining 2023 yil 22 sentyabrda 15-96753-son dalolatnomasi). Natijada, soliq va bojxona ma'murchiligini soddalashtirish maqsadida joriy yildan aksiz solig'ini tamaki mahsulotini iste'mol qilish tizimi bo'yicha suyuqlikdagi nikotinga emas balki, suyuqlikning hajmidan kelib chiqib hisoblash tartibi joriy qilindi va 2023 yil 1 fevraldan filtrli, filtersiz sigaretalar, papiroslar, sigarillalar, bidi, kretekni ishlab chiqarishda absolyut miqdorda belgilangan aksiz solig'i stavkalari 10 foizga, shuningdek chilim uchun tamaki, chekiladigan va boshqa tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish va import qilishda soliq stavkalari 10 foizga indeksatsiya qilish hamda 2023 yil 1 yanvardan alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarishda aksiz solig'i to'lanadigan mahsulot tarkibidagi etil spirtining ulushidan (miqdoridan) kelib chiqqan holda hisoblab chiqarish tartibi, alkogol mahsulotlarini import qilishda aksiz solig'i stavkalari 5 foizga pasaytirish hamda 2023 yil 1 fevraldan alkogol mahsulotlari 10 % ga indeksatsiya qilish orqali 2022 yilda 13455,0 mlrd.so'm va 2023 yilda tushum o'tgan yilga nisbatan 17,6 foizga oshgan holda 15834,0 mlrd.so'm budjet daromadlarini oshishiga xizmat qilgan;

mamlakatimizning Jahon savdo tashkilotiga a'zo davlatlar ko'rsatkichlariga yaqinlashish, hamda import shartnomalarida tovar narxini pasaytirishning oldini olish maqsadida bojxona qiymati faqatgina uning bojxona qiymati deklaratsiyasida ko'rsatilgan hamma elementlarini inobatga olgan 1-usulda aniqlashga doir taklifi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 6-aprelda 160-son qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kiriladigan tovarning bojxona qiymatini aniqlash tartibi to'g'risida nizom"ni ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasining 2023 yil 22 sentyabrda 15-96753-son dalolatnomasi). Natijada, mamlakatda 1-usulda bojxona qiymatini aniqlash salmog'ining oshiga, hamda tovarlarni bojxona qiymatini aniqlashga ketadigan vaqt sarfini kamayishiga, bojxona chegarasidan tovarlar o'tishini tezlashishiga, import shartnomalarida tovar narxini pasaytirishning oldini olishga, va Jahon savdo tashkiloti(JST)ga a'zo bo'lishi uchun xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining aprotasiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta, jumladan 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokama qilingan va ijobiy xulosalar olingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertasiya mavzusi bo'yicha jami 10 ta ilmiy ish, jumladan, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestasiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta, shundan, nufuzli xorijiy jurnallarda 1 ta ilmiy maqola chop etilgan.

Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertasiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertasiyaning hajmi 142 betni tashkil etadi.

DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertasiyaning kirish qismida ilmiy tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilinib, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ishlar va dissertasiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertasiyaning "**Bilvosita soliqlarning nazariy huquqiy asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida soliq siyosatini takomillashtirishning asosiy konsepsiyasi, bilvosita soliqlarning nazariy huquqiy asoslari, bilvosita soliqlarni qo'llashning jahon tajribasi va undan foydalanish yo'llarining nazariy masalalariga oid ilmiy-nazariy qarashlar yoritilgan.

Soliqlarning paydo bo'lishi bilan soliqqa tortishning umumiy va xususiy nazariyalari shakllandi. Soliqqa tortishning ilk umumiy nazariyalaridan biri bo'lib almashinuv nazariyasi bo'lib hisoblanadi. Sh.A. Toshmatov va boshqalarni takidlashicha, mazkur nazariyaning mohiyati shundan iboratki, fuqarolar soliq orqali tashqaridan qilinadigan hujumlardan himoya, huquqlarini himoya qilishi yuzasidan tartibni saqlanishi kabi xizmatlarni davlatdan sotib oladi¹⁰.

Soliqqa tortishni rivojlanishida klassik nazariyaning munosib o'rni bor. Bu nazariyaga ko'ra soliqlar davlat budjeti daromadi manbai sifatida e'tirof etiladi. Uning namayondalari U.Petti, Adam Smit, David Rikardo va boshqalar bo'lib hisoblanadi.

XX asrga kelib Keynischilik va noklassik nazariyalar paydo bo'ldi va rivojlandi. Soliqqa tortishning umumiy nazariyalarini rivojlanishi uning zamonaviy nazariyalarini shakllanishiga olib keldi.

Soliqqa tortishning quyidagi zamonaviy nazariyalarini e'tirof etish mumkin: optimal soliqqa tortish nazariyasi, soliqqa tortishning chegarasi nazariyasi- Laffer egri chizig'i, bevosita va bilvosita soliqlar nisbati nazariyasi, yagona soliq nazariyasi, progressiv va proporsional soliqqa tortish nazariyasi va boshqalar.

¹⁰ Soliq nazariyasi va tarixi. Sh. Toshmatov va bosh. T.; 2022.-268 b.

Soliqqa tortishning zamonaviy nazariyalari ichida bevosita va bilvosita soliqlar nisbati nazariyasi alohida ahamiyatga ega. Bu nazariyaning mohiyati shundan iboratki, soliqlar ikki guruhga: bevosita va bilvosita soliqlarga bo'linadi.

Soliqlar va soliqqa tortishning ikki mustaqil turga bo'lish nazariyasi evolyusiyasi uchta asosiy konsepsiyani qamrab oladi.

Soliq farqining birinchi konsepsiyasi soliq yukini iste'molchiga o'tkazish nuqtai nazaridan izlash kerak. To'g'ridan to'g'ri soliq to'lovchining zimmasiga tushadigan va iste'molchiga tovarlarni sotish narxlariga kiritish orqali o'tkazib

Bo'lmaydigan soliqlar bevosita hisoblanishi kerak. Qolgan soliqlar bilvosita hisoblanadi.

Ikkinchi konsepsiya soliq tasnifining ma'muriy belgisi bilan bog'liq. Bu nazariyaga ko'ra, to'g'ridan to'g'ri soliqlar nominal ro'yxatlar va kadastrlar orqali undiriladi, egri soliqlar esa faqat sotish narxlarini bilan bog'liq. Boshqacha qilib aytganda, bevosita soliqlar faqat daromad va mulk bilan bog'liq bo'lsa, bilvosita soliqlar iste'mol qilinadigan tovarlar narxlarini bilan bog'liq.

Uchinchi konsepsiya to'g'ridan to'g'ri soliqlar soliq to'lovchining to'lov qobiliyatidan kelib chiqqan holda uning daromadi yoki mulkidan undirilishiga asoslanadi va bilvosita soliqqa tortishda to'lov qobiliyati bilvosita jismoniy shaxsning xarajatlari miqdoridan kelib chiqqan holda belgilanadi¹¹.

Evropa mamlakatlarida bilvosita soliqlarning roli AQSh, Yaponiya, Kanada va Avstraliyaga qaraganda yuqoridir. Jahon soliq amaliyotida Davlat budjeti daromadlari tarkibida bevosita va bilvosita soliqlarning nisbatiga qarab u yoki bu mamlakat iqtisodiyatining rivojlanganlik darajasiga baho berish mumkin¹².

O'zbekiston soliq siyosatidagi bevosita va bilvosita soliqlar nisbati nazariyasi soliq yukini soliq to'lovchilar o'rtasida ularning to'lov qobiliyatini hisobga olgan holda adolatli taqsimlanishi tamoyiliga asoslanadi. Shu nuqtai nazardan, bevosita soliqlar yanada progressiv va adolatli hisoblanadi, chunki ular to'lov qobiliyati tamoyiliga asoslanadi va soliq to'lovchilarga bevosita tegishli bo'lgan daromadlar, mulklar va boshqa aktivlardan undiriladi.

Bilvosita soliqlar esa regressiv hisoblanadi, chunki ular daromadi va boyligidan qat'iy nazar barcha soliq to'lovchilar tomonidan iste'mol qilinadigan tovarlar va xizmatlardan undiriladi. O'zbekistonda bilvosita soliqlarga qo'shilgan qiymat solig'i (QQS), aksizlar va bojxona to'lovlari kiradi.

Soliq yukini bevosita va bilvosita soliqlar o'rtasida taqsimlash uchun O'zbekiston Respublikasi hukumati bir qancha chora-tadbirlarni amalga oshirdi, jumladan, ayrim muhim tovarlar va xizmatlar uchun QQS stavkalarini pasaytirish, kichik va o'rta korxonalar uchun imtiyozlar va pasaytirilgan stavkalarni taqdim etish, progressiv daromad solig'i tizimi.

O'zbekiston soliq siyosatida bevosita va bilvosita soliqlarning nisbiyligi nazariyasi adolatlilikning asosli tamoyillariga asoslangan bo'lsada, bunday siyosatni amalga oshirish qiyinchilik tug'dirishi mumkinligini ta'kidlash lozim. Masalan, turli

¹¹ Микеладзе П.В. Косвенные налоги. Л.: Финиздат, 1927. С. 64—86.

¹² Ibrohimov D. M., Ergashev M. Bilvosita soliqlarni O'zbekiston Respublikasi soliq tizimida tutgan o'rni va soliq xavfini tahlil qilish natijalarini baholash. Journal of Advanced Research and Stability Volume: 03 Issue: 01 | Jan - 2023 ISSN: 2181-2608.

soliq to'lovchilarning to'lov qobiliyatini to'g'ri baholashda, shuningdek, QQS stavkalari tushirilishi kerak bo'lgan muhim tovarlar va xizmatlarni aniqlash va aniqlashda qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin.

1-jadval

O'zbekiston Respublikasida 2018-2023 yillarda Davlat budjeti tushumlari tahlili, (mlrd.so'mda)¹³

T/R	Ko'rsatkichlar	2018	2019	2020	2021	2022	2023
	DAROMADLAR (MAQSADLI JAMG'ARMALARSIZ) - JAMI	79 099,0	112 165,4	132 938,0	164 680,3	201 863,7	231721
1.	Bevosita soliqlar	15 656,2	31 676,8	45 206,9	58 930,4	64 477,1	73 104
1.1	Foyda solig'i	3 502,2	16 360,6	28 712,2	38 363,3	37 649,9	40 779
1.2	Aylanmadan soliq	2 108,5	1 988,7	1 353,9	1 649,4	2 512,7	2 407
1.3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	6 422,7	12 668,5	15 140,8	18 917,7	24 284,5	29 917
2.	Bilvosita soliqlar	41 280,4	46 427,2	46 428,4	56 290,5	71 390,2	83 326
2.1	Qo'shilgan qiymat solig'i	27 876,5	33 809,8	31 177,4	38 439,0	52 189,4	57 885
2.2	Aksiz solig'i	9 702,2	10 314,7	11 697,3	13 086,6	13 455,0	15 834
2.3	Bojxona boji	1 826,4	2 302,7	3 553,7	4 764,9	5 745,7	9 606
3.	Resurs to'lovlari va mulk solig'i	12 663,4	19 680,7	21 257,0	23 036,4	23 912,8	28 079
3.1	Mulk solig'i	2 606,1	2 360,2	1 974,3	2 457,3	4 015,4	5 098
3.2	Er solig'i	1 504,2	2 313,2	2 386,7	4 082,8	5 305,9	6 890
3.3	Er osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq	8 424,7	14 692,8	16 417,1	15 811,9	13 887,4	15 300,0
3.4	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	128,4	314,5	478,8	684,4	704,1	791
4.	Yuqori daromaddan olinadigan soliq	1 528,0	107,9	-	-	-	-
5.	Boshqa daromadlar	7 971,0	14 272,8	20 045,8	26 423,1	42 113,7	47 212

Bundan tashqari, iqtisodiy o'sish va ijtimoiy rivojlanishga ko'maklashishda soliq siyosatining samaradorligi nafaqat soliq tuzilmasi, balki soliq ma'muriyatining samaradorligi, davlat organlarining shaffofligi va hisobdorligiga ham bog'liq. Shunday qilib, adolatli va mutanosib soliq siyosati bilan bir qatorda soliqlarni undirish, ijro etish va boshqarishning samarali mexanizmlariga ega bo'lish juda muhimdir.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston soliq siyosatida bevosita va bilvosita soliqlarning nisbiyligi nazariyasi soliqqa tortishda adolatni ta'minlashga

¹³ Jadval O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi ochiq ma'lumotlari asosida tuzildi. Daromadlar 2015-2022-yil ijrosi. <https://openbudget.uz/incomesView/.25.04.2023>.

qaratilganligini e'tirof etish mumkin. Biroq, uning iqtisodiy o'sish va ijtimoiy rivojlanishning kengroq maqsadlariga erishishdagi muvaffaqiyati bir qancha omillarga, jumladan samarali soliq ma'muriyatchiligi va yaxshi boshqaruvga bog'liq.

O'zbekiston Respublikasida 2018-2023 yillarda Davlat budjeti tushumlari tahlili 1-jadvalda keltildi. Tahlil qilinayotgan davrda soliq tushumlari yildan yilga oshganini ko'rishimiz mumkin. 2018 yilda bu ko'rsatkich 79 099,0 mlrd. so'm bo'lgan bo'lsa, 2022 yilda esa 201 863,7 mlrd. so'mni tashkil etgan. Ushbu davrda bevosita soliqlar, bilvosita soliqlar, resurs to'lovlari va mulk solig'i bo'yicha ham tushumlar oshirish tendensiyasi ega bo'lgan. Bilvosita soliqlar 2018 yilda 41 280,4 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2021 yilda 56 290,5 va 2022 yilda 71 390,2 mlrd. so'm bo'lgan.

2-jadval

O'zbekiston Respublikasida 2018-2023 yillarda Davlat budjeti tushumlari tahlili, (mlrd.so'mda)¹⁴

№	Ko'rsatkichlar	2018	2019	2020	2021	2022	2023
1.	Davlat budjeti daromadlari	79 099,0	112 165,4	132 938,0	164 680,3	201 863,7	231 721
2.	Bevosita soliqlar	15 656,2	31 676,8	45 206,9	58 930,3	64 477,1	73 104
	Ulushi	19,79	28,24	34,01	35,78	31,94	31,55
3.	Bilvosita soliqlar	41 280,4	46 427,2	46 428,4	56 290,5	71 390,2	83 326
	Ulushi	52,19	41,39	34,92	34,18	35,36	35,96
4.	Resurs to'lovlari va mulk solig'i	12 663,4	19 680,7	21 257,0	23 036,4	23 912,8	28 079
	Ulushi	16,01	17,55	15,99	13,99	11,85	12,12
5.	Yuqori daromaddan olinadigan soliq	1 528,0	107,9	-	-	-	-
	Ulushi	1,93	0,10	-	-	-	-
7.	Boshqa daromadlar	7 971,0	14 272,8	20 045,8	26 423,1	42 113,7	47 212
	Ulushi	10,08	12,72	15,08	16,05	20,85	20,37

Tahlil davrida soliq tushumlari 2022 yilda 2018 yilga nisbatan 255,2 foizga o'sgan bo'lsa, bevosita soliqlarning o'sishi 411,83 foiz bo'lgan bo'lsa, bilvosita soliqlar bo'yicha bu ko'rsatkich 172,94 foizni tashkil etgan. 2023 yilda budjet daromadlari 231721 mlrd.so'mni tashkil etib, shundan bilvosita soliqlar 83326 mlrd. so'm bo'lib, qo'shilgan qiymat solig'i 57885 mlrd. so'm bo'lgan. Xulosa qiladigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasida soliq siyosati rivojlangan mamlakatlar amaliyotidagidek soliq tushumlarida bilvosita soliqlarga nisbatan bevosita soliqlar bo'yicha tushumlar katta o'sishga ega bo'lmoqda.

Soliq siyosatini amalga oshirishda bevosita, bilvosita, resurs to'lovlari va mulk soliqlarning jami soliq tushumdagi ulushlari muhim iqtisodiy ko'rsatkich bo'lib hisoblanadi. Ular bo'yicha ma'lumotlar 2-jadvalda keltirilgan.

¹⁴ Jadval O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi ochiq ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi. Daromadlar 2015-2022-yil ijrosi. <https://openbudget.uz/incomesView/25.04.2023>.

Ushbu jadvalda keltirilgan ma'lumotlar 1-jadval ma'lumotlari bilan uzviy bog'langan. Jadvalda keltirilgan ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, 2018 yilga nisbatan 2023 yilda bevosita soliqlar bo'yicha tushumlarning jami tushumdagi ulushi 19,79 foizdan 31,55 foizga ko'tarilgan. Aksincha, shu davrda bilvosita soliqlarning ulushi 2018 yilda 52,19 foizdan 2023 yilga kelib 35,96 foizga tushgan.

Soliq tushumlarida bevosita, bilvosita, resurs to'lovlari va mulk soliqlarining ulushlarining mamlakat iqtisodiy barqarorligini ta'minlashi bo'icha xulosa qilish uchun xalqaro amaliyotni o'rganish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Shuningdek, bevosita yoki bilvosita soliqqa tortishning optimallashtirish har mamlakatning iqtisodiyotining xususiyatlaridan kelib chiqish zarur. Buning uchun esa yangi raqamli texnologiyalardan foydalangan holda chuqurroq tahlillar o'tkazish zarur.

Dissertasiyaning **“Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash, undirish va nazorat qilish mexanizmini takomillashtirish”** deb nomlangan ikkinchi bobida qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab chiqarish va budjetga undirish mexanizmining amaldagi holati tahlili, qo'shilgan qiymat solig'i mexanizmini takomillashtirish yo'nalishlari va qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha soliq nazoratini o'tkazish tartibini takomillashtirish masalalari ilmiy jihatdan tadqiq etilgan. Mamlakatimizda qo'shimcha qiymat solig'ining summasi yildan yilga oshib bormoqda. Uch yil davomida mahalliy mahsulotlarga qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha budjet daromadlari bir yarim baravar oshdi – 2020 yildagi 20,5 trillion so'mdan (2,1 milliard dollar) 2022 yilda 32,8 trillion so'mgacha (3,0 milliard dollar). Import bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i shu davrda deyarli ikki baravarga o'sdi – 19,7 trillion so'mdan 38,7 trillion so'mgacha. O'tgan yili QQS daromadlari davlat budjeti daromadlarining uchdan bir qismini ta'minladi. 2022-yilda yig'ilgan QQSdan 71,5 trillion so'm belgilangan 53,3 trillion so'mdan sezilarli darajada oshib ketdi. 2023 yilda O'zbekiston budjetiga 63,8 trillion so'm miqdorida qo'shilgan qiymat solig'i tushumlari kutilmoqda. QQS to'lovchilar soni 2022-yilning o'zida 14,4 foizga o'sdi va dekabr oyida 171,9 mingtani tashkil qildi¹⁵.

Qo'shilgan qiymat solig'ining stavkasi pasayishiga qaramasdan, uning summasi 2018 yilda 27,9 trln.so'm bo'lgan bo'lsa, 2023 yilda 57,9 trln so'mni, tashkil etgan (3-jadval).

Mamlakatimizda qo'shilgan qiymat solig'i ma'muriyatchiligini soddalashtirish borasida doimiy ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Bunga yaqqol misol qilib O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 4 sentyabrdagi “O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan 2023 yildagi ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-292 son qarorini keltirish mumkin¹⁶.

¹⁵ Снижение НДС в Узбекистане поможет увеличить поступления в бюджет и стимулирует бизнес-активностьдолгосрочно.file:///C:/Users/Fiscal%20Institut/Desktop/%D0%91%D0%B5%D0%B7%20%D0%BD%D0%B0%D0%B7%D0%B2%D0%B0%D0%BD%D0%B8%D1%8F.htm. 22.04.2023.

¹⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 4-sentyabrdagi “O'zbekiston Respublikasi prezidentining tadbirkorlar bilan 2023-yildagi ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-292 son qarori.

3-jadval

**2018-2023 yillarda davomida qo‘shilgan qiymat solig‘i tushumlari dinamikasi
(trln.so‘mda)**

Ko‘rsatkichlar	2018	2019	2020	2021	2022	2023
YaIM	426,6	532,7	605,5	738,4	888,3	1 066,6
Budjet daromadlari	79,1	112,2	132,9	164,8	202,0	231,7
QQS	27,9	33,8	31,2	38,4	52,2	57,9
QQSni jami daromaddagi ulushi	35,3	30,1	23,5	23,3	25,8	24,9

Ushbu qaror “Yo‘l xaritasi”ning V-bo‘limida qo‘shilgan qiymat solig‘i ma‘muriyatchiligini soddalashtirish belgilangan bo‘lib, quyidagilar keltirilgan:

Qo‘shilgan qiymat solig‘ining salbiy summasi o‘rnini qoplashda (qaytarishda) soliq uzilishi (tax gap) koeffitsiyentini qo‘llash amaliyoti taqiqlanadi;

Qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha maxsus ro‘yxatdan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi guvohnomasining amal qilishini to‘xtatib turish tartibi bekor qilinadi.

Jahondagi ayrim mamlakatlarning qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha qo‘llab kelayotgan stavkalari turlicha. Ayrim davlatlarda qo‘llanilayotgan QQS stavkasi eng yuqori soliq stavka Vengriya davlatida 27 foiz va Shvesiyada 25 foiz bo‘lsa, eng past soliq stavkasi esa Singapur va Saudiya Arabistonida 5 foiz miqdorida belgilangan¹⁷.

4-jadval.

**O‘zbekiston Respublikasida qo‘shilgan qiymat solig‘i stavkalarini
o‘zgarish bosqichlari**


Davr	QQS stavkalari
1992 yil	30 %
1993-1994-yillar	25 %
1995-yil	18 %
1996-yil	17 %
1997-yil	18 %
1998-yil	20 %
01.10.2019-yil	15 %
01.01.2023-yil	12 %

Respublikamiz taraqqiyotida qo‘shilgan qiymat solig‘i stavkasining o‘zgarishi bir necha bosqichlardan iborat bo‘lgan (4-jadval). Mamlakatimiz amaliyotida qo‘shilgan qiymat solig‘i 1992 yildan qo‘llanilgan bo‘lib, uning asosiy stavkasi 30 foizni tashkil etgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 26 sentyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoniga asosan 2019 yilning 1 oktyabrdan qo‘shilgan qiymat solig‘i stavkasi 20 foizdan 15 foizga tushirildi. O‘zbekiston Respublikasining 2022 yil 30 dekabrda O‘RQ-812-son Qonuniga asosan 2023 yil 1-yanvardan QQS stavkasi 12 foiz etib belgilangan. Qo‘shilgan qiymat solig‘i

¹⁷ Komilov M.M. Qo‘shilgan qiymat solig‘i ma‘murchiligini takomillashtirish – byudjet daromadlari barqarorligini ta‘minlash omilidir. Iqtisodiyotda innovatsiyalar - Innovatsii v ekonomike - Innovations in economy №5|2020

stavkasini 3 punktga pasayishi iqtisodiyotimizga nima beradi degan savol tug'ildi. 1-rasmda QQS stavkasining 3 foizga pasaytirilishi iqtisodiyot tarmoqlarida narxlarning pasaytirilishiga ta'siri keltirilgan.



1-rasm. QQS stavkasining 3 foizga pasaytirilishi iqtisodiyot tarmoqlarida narxlarning pasaytirilishiga ta'siri

Quyidagi ma'lumotlarga asosan ko'rib turganimizdek, qo'shilgan qiymat solig'i stavkasining 3 foizga pasaytirilishi iqtisodiyot tarmoqlarida narxlarning pasaytirilishiga ta'sir qilib, qishloq xo'jaligi tovarlarida 7 foizgacha, tashish va saqlash bilan bog'liq xarajatlarni 6 foizga boshqa xizmatlar 4 foizgacha pasaytirilishini anglatadi. QQS nominal stavkasining 15 foizdan 12 foizgacha tushirilishi iqtisodiyotning real sektorida narxlar pasayishiga olib keladi. "Xarajatlar-ishlab chiqarish" narx modelidan foydalangan holda amalga oshirilgan hisob-kitoblarga ko'ra, bunday pasayish 0,81 foizni tashkil etadi. Boshqacha aytganda, narxlar umumiy indeksining 0,8 foiz punktga pasayishi soliq tushumlari bo'yicha yo'qotishlar (QQS tushumlarining 20 foizga yoki budjetdan tashqari jamg'armalarni hisobga olmaganda barcha soliq tushumlarining 4,7 foizga kamayishi) uchun kompensasiya bo'ladi. Bunda to'g'ridan to'g'ri ta'sir (tarmoqlararo o'zaro ta'sirlarni hisobga olmaganda) 0,57 foiz punktni, bilvosita ta'sir (tarmoqlararo o'zaro ta'sirlar bilan) esa 0,24 foiz punktni tashkil etadi. Narxlar pasayishiga qayta ishlash sanoati (39 foiz), qurilish (14 foiz) va ulgurji va chakana savdo (10 foiz) tarmoqlari eng katta hissa qo'shadi, ya'ni ushbu uchta tarmoq ulushiga umumiy narxlar pasayishining deyarli 2/3 qismi to'g'ri keladi.

Qo'shilgan qiymat solig'i stavkasining 2023 yil 1 yanvardan 12 foizgacha pasaytirilishi qiymat zanjiri uzluksiz shakllangan taqdirda korxonalarda faollikni yanada oshiruvchi va shu bilan birgalikda iste'mol narxlari oshishini sekinlashtiruvchi omil sifatida qaralmoqda

Qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasida daromadlar prognozining oshirib bajarilgan qismining 100 foizi, qolgan hududlarda esa 60 foizini qoldirish bo‘yicha bergan taklifi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 30 dekabrda “O‘zbekiston Respublikasining “2023 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-471-son qarorida o‘z aksini topib amaliyotga joriy qilindi. Bu esa hududiy soliq organlarini qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha prognoz ko‘rsatkichlarni bajarilishini rag‘batlantiradi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahri Kengashlarining budget sohasidagi vakolatlarini yanada oshirish maqsadida hududiy budget mablag‘larini taqsimlovchilar budget mablag‘larining samarali va maqsadli sarflanganligi, xarajatlarning amaliy natijalari yuzasidan yillik faoliyati to‘g‘risida mahalliy Kengashlarga hisobot berishni to‘liq joriy etish. Mahalliy budgetda qoldirilgan mablag‘larning sarflanishi bo‘yicha belgilangan tartibda hisobot beriladi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida qo‘shilgan qiymat solig‘i ma‘muriyatchiligini takomillashtirish yo‘llaridan biri raqamli soliq tizimiga o‘tishdir.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT)ga a‘zo 130 mamlakatlar 2023 yildan boshlab raqamli soliq tizimiga o‘tishni rejalashtirgan. Raqamli soliq - bu transmilliy IT-korporasiyalar hisobidan davlat tomonidan olinadigan daromadlardan soliq tushumlarini optimallashtirishga qaratilgan hukumat chora-tadbirlari majmuidir¹⁸.

Raqamli soliq tizimida QQS bir qancha mamlakatlar amaliyotida qo‘llanilmoqda. Jumladan, 2020-yil iyun oyida Tayland bulutli va boshqa raqamli xizmatlarning xorijiy provayderlaridan qo‘shilgan qiymat solig‘ini (QQS) to‘lashni talab qiluvchi qonun loyihasini ma‘qulladi.

2020-yil mayda Indoneziya yirik internet-kompaniyalardan raqamli mahsulotlar va xizmatlarni sotish uchun QQS to‘lashni talab qiluvchi qonunni qabul qildi va Filippinda qonun chiqaruvchi raqamli xizmatlarga soliq solish bo‘yicha shunga o‘xshash qonun loyihasini parlamentga kiritdi¹⁹.

Qozog‘iston Respublikasida raqamli soliq Soliq kodeksining 25 bo‘limiga 777-780 moddalar kiritilishi asosida amaliyotda qo‘llanila boshladi²⁰.

Ushbu qonunga asosan 2022 yil 1 yanvardan boshlab Qozog‘istonda yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat yurituvchi xorijiy internet kompaniyalari (shu jumladan bozorlar) 12% stavkada QQS to‘lash bo‘yicha soliq majburiyatini oladi. Raqamli soliqning potensial to‘lovchilari Facebook, Amazon, Apple, Netflix, Alibaba va Google kabi gigantlar bo‘ladi. Qozog‘istonliklar allaqachon yangi soliqni “Google’dagi soliq” deb atashga muvaffaq bo‘lishdi.

¹⁸ Угаров Р. А., Ломов Е. Е. Направления развития нового цифрового законодательства: российский и зарубежный опыт // Региональная и отраслевая экономика. - 2022. - № 1. - С. 36-42. 10.47576/2782-4578_2022_1_36.

¹⁹ Цифровой налог. Цифровой налог в Таиланде. <https://www.tadviser.ru/index.25.09.2023>.

²⁰ Закон Республики Казахстан от 10 декабря 2020 года № 382-VI ЗРК “О внесении изменений и дополнений в Кодекс Республики Казахстан “О налогах и других обязательных платежах в бюджет” (Налоговый кодекс) и Закон Республики Казахстан “О введении в действие Кодекса Республики Казахстан “О налогах и других обязательных платежах в бюджет” (Налоговый кодекс)”

2017 yilda Rossiya xorijiy Internet-kompaniyalar uchun soliq joriy etdi. Google va Apple kabi kompaniyalar Rossiyada 18% QQS to'laydi.

Turoperator xizmatlarini ko'rsatuvchi tadbirkorlik subyektlariga ular tomonidan 5 nafar va undan ortiq norezidentlarga xizmatlar ko'rsatishni nazarda tutuvchi turpaketlar bo'yicha chet ellik hamkorlariga taqdim etilgan hisobvaraqq-fakturada ko'rsatilgan qo'shilgan qiymat solig'ining 20 foiz miqdoridagi mablag'lar respublika budjetidan subsidiya sifatida qaytarilishi lozimligi bo'yicha bergan takliflari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 26 apreldagi "Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora- tadbirlar to'g'risida" PQ-135-son qarori tasdiqlanib amaliyotga joriy etildi Natijada, turizm salohiyatidan to'liq va samarali foydalanish, mavjud resurslar va imkoniyatlardan har tomonlama foydalanish hisobiga turizm sohasida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlari uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish ta'minlandi.

Mamlakatimizda turizm sohasidagi tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida 100 ga yaqin soliq va bojxona imtiyozlari, xarajatlar va kreditlarni bir qismini qoplash, subsidiya hamda grantlar berish, foizsiz ssudalar ko'rinishida davlat tomonidan qo'shimcha ko'mak va preferensiyalar berildi. 3 va 4 yulduzli yangi mehmonxonani qurish va jihozlash uchun investorlar xarajatlarning bir qismini Davlat budjeti mablag'laridan qoplab berish uchun 21 nafar investorga 78,4 mlrd. so'm hamda 1 nafar investorga 52,4 ming AQSh dollari miqdorida subsidiya ajratildi.

Shuningdek, yoshlarni turizm sohasidagi tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash maqsadida joriy yilning avgust oyidan boshlab, turoperatorlik faoliyatlarni yo'lga qo'yishlari uchun 50 mln so'mdan grant mablag'lari ajratilmoqda. Bu orqali 200 nafar yoshlarning tadbirkorlik faoliyatlarini boshlashi uchun keng imkoniyatlar yaratiladi va 60 ming nafar xorijiy turistlarning tashrifi tashkil etiladi.

Turistik korxonalar uchun ijtimoiy soliq va aylanma soliq stavkalari 1 foiz etib belgilangani, er solig'i va mol-mulk soliq stavkalari 90 foizga kamaytirilgani natijasida sohada tadbirkorlik subyektlari soni ortdi. Turistlarga xizmat ko'rsatuvchi subyektlar soni 4 713 taga, jumladan turoperator va turagentlar – 2 404 ta, gid - ekskursovod soni 2 309 nafarga etkazildi. Turizm sohasida ishlayotgan korxonalarga 15 trillion so'm kreditlar, 6 trillionlik soliq va bojxona imtiyozlari hamda 200 milliard so'm subsidiya va grantlar berildi. "Amirsoy" qishki kurorti, Namangandagi "Afsonalar vodiysi" hamda "Zomin" va "Chorvoq" zonalari ko'plab xorijiy sayyohlar e'tiborini tortadigan xalqaro turizm maskanlariga aylandi.

